

BUGUNGI KUNDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI VA AHAMIYATI

Yusupkhodjaeva Gulchehra. Akimkulova Ziur

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent, Olmazor, Universitet ko'chasi, 2, 100095 Uzbekistan

Email: i.bairam@bk.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10467715>

Kalit so'zlar: raqobat, iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, axborot kommunikasiya, YIM.

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning har mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan dunyoning rivojlangan mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotga o'tish darajasi tahlil qilingan.

Jahonda pandemiyadan keyingi davrda zamonaviy jamiyat hayotining barcha sohalariga raqamli texnologiyalarning faol kirib borishi yangi dunyo iqtisodiyotining rivojlanayotgan raqamli makonida raqobatbardosh mavqega erishish uchun iqtisodiyotni raqamlashtirish va raqamli o'zgartirish jarayonlarini tezlashtirish zarurati juda katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu kabi o'zgarishlarning analitik, ilmiy va uslubiy rivojlanishini, raqamli iqtisodiyot uzoq muddatli istiqbolida mikro, mezo, makro darajalarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimlari rivojlanish vektorini belgilash, raqamli transformasiya jarayonlarini tadqiq etish va har tomonlama tahlil qilish muhim masalalar qatoriga kiritilgan.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va tarmoq effektlari jahon iqtisodiy tizimining barcha sub'ektlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining ajralmas qismi va umuman ijtimoiy taraqqiyotning asosidir. O'zbekiston, dunyoning aksariyat davlatlari singari, hayotning barcha sohalarida bilim, fan, texnika va axborotning asosiy roli bilan tavsiflanadigan yana bir texnologik inqilob, yangi tsivilizasiya paydo bo'lish arafasida turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Yurtimiz Xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi bo'yicha 2019 yilda 8 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali juda ham orqadamiz. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq, desak, bu ham haqiqat. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz? Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustivor vazifalarimizdan biri bo'ladi,"¹ va shu bilan birga, «... Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oshirish va korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi.

2020 yil 2 mart kuni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Prezidenti Farmoni imzolandi.

Dastur 284 ta banddan iborat bo'lib, unda umumiy qiymati 18,2 trln. so'm va 10,3 mlrd. AQSh dollariga teng loyihalar tasdiqlandi. Bundan tashqari, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan "Raqamli O'zbekiston - 2030" dasturi loyihasini ishlab chiqish, "Elektron hukumat" tizimi takomillashtirish, mahalliy IT-texnologiyalari bozori salohiyatni oshirish, davlat ma'lumotlarini boshqarish tizimi yaratish kabi bir qator vazifalar yuklatildi.

Hozirgi kunda olimlar va amaliyotchilarning raqamlashtirishning mamlakatlar iqtisodiy o'sishiga, mehnat unumdorligini oshirishga ta'siri qanchalik muhimligi, shuningdek, multiplikator va tarmoqlararo ta'sirlar mumkinligi to'g'risida yakdil fikrlari ishlab chiqmagan bo'lsada. Biroq, har bir kishi raqamli inqilob ta'siri ostida yuzaga keladigan o'zgarishlarning kattaligi va muqarrarligini tan olishmoqda. O'zbekiston uchun raqamli davrga majburan o'tish global o'sib borayotgan global raqobat sharoitida milliy xavfsizlikni ta'minlash va resurslarga bog'liq iqtisodiyotning salbiy tashqi tomonlarini neytrallashtirishning muhim masalasidir.

"Raqamli texnologiyalar odamlarning kundalik hayotini tubdan o'zgartirdi, uni soddalashtirdi, ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqarish kuchlarini o'zgartirdi, mamlakatlarning ma'muriy-hududiy tuzilishini va iqtisodiyot infratuzilmasini yaxshilaydi, aloqa va kommunikatsiya, hisoblash kuchi, axborot tizimlari va xizmatlariga yangi talablarni paydo qilmoqda. Axborot an'anaviy ishlab chiqarish omillaridan (ishchi kuchi, yer, kapital) asta-sekin siljish va foydalanish xususiyatini o'zgartirib, ishlab chiqarishning eng muhim omiliga aylanadi."²

Hozirgi vaqtda raqamli iqtisodiyot zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hodisasidir. Uning qarama-qarshilik tabiati bevosita mamlakatlarni, bir tomondan, ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlarni boshqarish mexanizmlarini izlashga, ikkinchidan, umumiy raqamlashtirishdan kelib chiqadigan tahdidlarni zararsizlantirishga majbur qiladi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha xorijiy mamlakatlarning (AQSh, Evropa Ittifoqi, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Rossiya) tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

¹ Mirziyoyev SH.M 2020 yil 24 yanvardagi 2020 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

² Егина Н. А. Экономика знаний: глобальный тренд и перспективы России // Финансовая экономика. – 2018. – № 3. – с. 44–47.

“Jahon iqtisodiy forumining 2018 yilgi hisobotiga ko‘ra, kompaniyalar biznes strategiyasini raqamlashtirish uchun taxminan 1,2 trillion AQSh dollari sarflagan.”³ Mikro darajada ishlab chiqarishning har bir bosqichida raqamli usullarni qo‘llashni o‘rganishdan iborat bo‘lgan raqamli transformatsiyani shakllantirishga jarayonli yondashuv asosida, raqamli usullarning ta‘sir iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ta‘sir qiladi degan xulosaga kelish mumkin.

Bugungi kunda dunyo aholisining deyarli yarmidan ko‘pi internetga ulangan. “Dunyo aholisining 53 foizidan ko‘prog‘i yoki 4,1 milliard kishi internetga ulangan va bu raqam o‘shishda davom etmoqda. Shu bilan birga, 2018 yildan 2019 yilgacha o‘shish 5,3 foiz punktni tashkil etgan. Bu haqida Xalqaro elektraloqa ittifoqining (XEI) Jenevada chop etilgan “Raqamli rivojlanishni o‘lchash: 2019 yil uchun faktlar va raqamlar” ma‘ruzasida ma‘lum qilgan.”⁴

Shu bilan birga, sayyoramizdagi 3,6 milliard odam Butunjahon internet tarmog‘iga kirish huquqiga ega emas. Ularning aksariyati rivojlanish darajasi past bo‘lgan mamlakatlar fuqarolari bo‘lib, o‘rtacha har o‘n aholidan ikkitasi internetdan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Internetdan foydalanish darajasi Evropada eng yuqori (82,5%), Afrikada esa eng past (28,2%).

Evropa Komissiyasining tadqiqotiga ko‘ra, samarali ishlaydigan raqamli bozor bevosita iqtisodiyotni rivojlantirishga yaxshi hissa qo‘shishi mumkin. “Evropa Ittifoqi (EI) misolida raqamlashtirish yiliga 415 milliard yevro miqdorida iqtisodiy vaziyatning o‘shishiga hissa qo‘shmoqda va yuz minglab yangi ish o‘rinlarini yaratmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyaning raqamli iqtisodiyotining o‘shish sur‘ati 5,4% teng bo‘lgan, bu shu davrdagi YaIMning 2% o‘shish sur‘atidan ham yuqori, Xitoyda raqamli iqtisodiyotining o‘shish sur‘ati 16,6% teng bo‘lgan bo‘lsa, mamlakat YaIMni o‘shish sur‘atlari 6,6% teng bo‘lgan.”⁵

McKinsey kompaniyasi ma‘lumotlariga ko‘ra, “AQSh YaIMdagi raqamli iqtisodiyot ulushini 10,9%, Xitoy - 10,0%, Evropa Ittifoqi mamlakatlari - 8,2%, Rossiya - 3,9% deb hisoblaydi va 2025 yilga kelib Rossiyaning raqamli iqtisodiyoti uch baravar ko‘payishini va YaIM o‘shishiga qo‘shgan hisssasi 19 dan 34% gacha bo‘lishini taxmin qilmoqda. BCG kompaniyasi ma‘lumotlariga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarning YaIMdagi raqamli iqtisodiyotning ulushi 2010 yildan beri 1,2 foiz darajaga o‘sd i va 2016 yil oxirida 5,5 foizni tashkil etdi.”⁶ “Buyuk Britaniya 2010 yilda “Raqamli iqtisodiyot to‘g‘risida”gi (Digital Economy Act), qonunni qabul qilgan va raqamli iqtisodiyotni ulushini YaIMning 12 foiziga baholangan.”⁷

Raqamli iqtisodiyot bu raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyatdir. Axborot texnologiyalari (dasturlar, ma‘lumotlar bazalarini boshqarish tizimlari, avtomatlashtirilgan tizimlar va boshqalar)ni rivojlantirish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq an’anaviy axborot iqtisodiyoti haqida emas, balki elektron tovar va xizmatlar, internetda virtual tovarlarni sotish, elektron - Amazon, e-Bay, Alibaba kabi tijorat, elektron pul va kripto-valyutalardan foydalanish, maxsus Internet xizmatlari, birinchi navbatda ijtimoiy tarmoqlar, narsalarning interneti (IoT), katta ma‘lumotlar (Big Data), bulutli hisoblash (Cloud Computing) hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, raqamli tovarlar va xizmatlar sanoati, jismoniy aktivlarni raqamlashtirish kabi tor ma‘noda raqamli iqtisodiyot haqida gaplashishimiz mumkin, ammo keng ma‘noda, bu aksariyat sohalar (aniqrog‘i, muvofiqlashtiruvchi innovatsion uskuna). moddiy ishlab chiqarishdan tashqari mavjud bo‘lmaydigan real iqtisodiyot hisoblanadi. Har qanday raqamli platforma analog asosga ega, u asosiy va yo‘q bo‘lganda raqamli uskuna haqiqatdan ajralgan virtual abstraksiyaga aylanadi. Shunday qilib, neftni yetkazib berish bo‘yicha raqamli shartnomalarning mavjudligi hali ham sotish uchun neftning asl qiymati zarurligiga asoslanadi. Raqamli iqtisodiyot sanoat, qishloq xo‘jaligi kompleksi, qurilish, xizmat ko‘rsatish va davlat boshqaruvini rivojlantirishga, mamlakatning global raqobatbardoshligi va milliy xavfsizligini oshirishga qodir bo‘lgan real iqtisodiyotga qo‘shimcha vazifasini bajaradi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalarni joriy etish an’anaviy ishlab chiqarishni parallel ravishda rivojlanishi bilan amalga oshirilishi kerak, chunki raqamli iqtisodiyotdan asosiy dividendlar faqatgina AT-kompaniya tomonidan emas, balki jamiyat tomonidan olinadi.

2020 yil 28 aprelda davlatimiz rahbarining “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-son qarori qabul qilindi.⁸

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasini dolzarbligidan chuqur anglagan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat iqtisodiyotining kelajagi yo‘q,”⁹ – deya ta’kidladi.

Yuqorida keltirilgan raqamlar va fikrlardan kelib chiqqan holda umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak, avvalambor raqamli iqtisodiyot-bu milliy iqtisodiyotni rivojlantirish vositasi sifatida axborot texnologiyalari hamda internet orqali xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini shaffof amalga oshirishga ko‘maklashuvchi va aholining turmush darajasini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiluvchi tizimdir.

³ The Digital Enterprise: moving from experimentation to transformation: [Электронный ресурс] // Insight Report of the World Economic Forum in collaboration with Bain & Company. 2018. URL: <https://www.weforum.org/reports/the-digital-enterprise-moving-from-experimentation-to-transformation>.

⁴ Xalqaro elektraloqa ittifoqining (XEI) Jenevada chop etilgan “Raqamli rivojlanishni o‘lchash: 2019 yil uchun faktlar va raqamlar” ma‘ruzasi. <https://www.itu.int/ru/mediacentre/Pages/2019-PR19.aspx>

⁵ Autor D.H. Why Are There Still So Many Jobs? The History and Future of Workplace Automation // Journal of Economic Perspectives. 2015. T. 29(3). C. 3–30.

⁶ The Internet Economy in the G-20. The \$ 4.2 Trillion Growth Opportunity [Electronic resource] // The Boston Consulting Group. URL: <https://www.bcg.com/documents/file100409.pdf>

⁷ https://ru.wikipedia.org/wiki/Digital_Economy_Act_2010

⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ -4699-son qarori <https://lex.uz/docs/4751561>

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning veb sayti <https://president.uz/uz>